

YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING UMUMNAZARIY ASOSLARI

Sevara Abdunisir qizi Pardayeva

Denov tadbirkorlik va pedagogika intituti talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash masalasi yoritilib berilgan. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda qanday bilimlar bilan qurollanirish kerakligiga katta ahamiyat berilgan. Yoshlarga oila qurishdan avval qanday burch va majburiyatlari bor ekanligi haqida ham aytib o‘tilgan. Qanday amaliy va nazariy bilimlar bilan qurollantirsak hayotida istiqbollarga erishishi mumkinligi haqida so‘z borgan.

Kalit so‘zlar: Oila, farzand, bilim, tartiblilik, axloqiy fazilat, jamiyat, oilaviy tarbiya

ABSTRACT

This article highlights the issue of preparing young people for family life. Great importance is attached to what kind of knowledge should be armed in preparing young people for family life. Young people were told about their duties and responsibilities before starting a family. It was said that if we arm ourselves with practical and theoretical knowledge, we can achieve prospects in life.

Keywords: Family, child, knowledge, orderliness, moral virtue, society, family upbringing

АННОТАЦИЯ

В данной статье освещается вопрос подготовки молодых людей к семейной жизни. Большое значение придается тому, какими знаниями следует вооружиться при подготовке молодых людей к семейной жизни. Молодым людям рассказали об их обязанностях и ответственности перед созданием семьи. Было сказано, что если мы вооружимся практическими и теоретическими знаниями, то сможем добиться перспектив в жизни.

Ключевые слова: Семья, ребенок, знания, упорядоченность, нравственная добродетель, общество, семейное воспитание.

Kirish.

Bugungi kunda “yoshlarimiz bizning tayanchimiz, ishonchimiz va kelajagimiz” degan so‘zlar ko‘p ishlatiladigan iboraga aylanib qoldi. Bu albatta bizning barcha ota-onalar va keng jamoatchilik orzu-umidi desak, har tomonlama to‘g‘ri bo‘ladi. Biz iste’dodlari farzandlarimiz

bilan, ularning jahon sport maydonlarida, xalqaro fan olimpiadalari madaniyat va san’at olamida erishayotgan katta yutuqlar bilan haqli ravishda faxlanamiz. Keyingi yillarda davlat idoralari bilan birgalikda bir qator nodavlat tashkilotlar ham faol ish olib borayotganini qo’llab quvvatlash lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2020-yil 18-fevraldagi “Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo’llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni bilan oilaviy qadriyatlar va oila instituti rivojlanishning yangi bosqichiga qadam qo‘ydi¹.

Yurtboshimiz tashabbusi bilan tashkil etilgan Mahalla va oilani qo’llab-quvvatlash vazirligi oldiga qo‘yilgan asosiy vazifalardan biri oila institutining tarixiy ildizlarini yuzaga chiqarish, oilaviy qadriyatlarni rivojlantirishdan iborat. Shu ma’noda o‘tgan davr mobaynida davlatimiz tomonidan yurtimizdagi oilalar, ayniqsa, katta hayot ostonasiga endi qadam qo‘yayotgan yosh oilalar mustahkamligi, ularning jamiyatning bir bo‘lagi sifatida mustaqil shakllanib borishi uchun ko‘plab amaliy ishlar olib borilmoqda.

Oilalarda baxtiyor turmush tarzining ham ahamiyati katta hisoblanadi. Shuning uchun Vazirlar Mahkamasining 2020-yilda 10-iyunda 367-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo’llab-quvvatlash vazirligi huzuridagi “Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot instituti faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi Qarori qabul qilingan².

Zero, oilalarning mustahkamligi jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, milliy xavfsizligini, uning ravnaqi, taraqqiyotini belgilovchi hal qiluvchi omil hisoblanadi. Mamlakatimizda oila – yurt tayanchi, uning ishonchli kelajagi, millat sharafini yuksaklarga ko‘taradigan mehr-muruvvat, hayotbaxsh harorat, madaniyat va ma’naviyat o‘chog‘i hisoblanadi. Oila jamiyatning tub negizi bo‘lib, eng asosiy tarbiya makonidir.

Asosiy qism. Sharq mutafakkirlari merosida yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash haqida tushuncha Sharq mutafakkirlarining ta’lim-tarbiya, oila va oilaviy tarbiya haqidagi qarashlari islom mafkurasi va uning qobig‘ida shakllangan. Sharq mutafakkirlari ijodida aks etgan umuminsoniy g‘oyalar islomiy ma’naviyat bilan hamohangdir.

Abu Rayhon Beruniy insonning axloqiy fazilatlarini, umuman axloqiy tushunchalarini insonning tabiati bilan bog‘laydi. Inson tabiati esa, avvalo, oilada shakllanadi. Shunga ko‘ra,

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2020-yil 18-fevraldagi “Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo’llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni

² Vazirlar Mahkamasining 2020-yilda 10-iyunda 367-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo’llab-quvvatlash vazirligi huzuridagi “Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot instituti faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi Qarori

yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda ota-ona ta'siri va namuna benihoya kattadir. Masalan, u ayollarga nasihat qilib, Abdulla ibn Jafar tilidan shunday deb yozadi: "Rashkdan saqlangin. U taloqning kalitidir. Eringga tez-tez tanbeh qilishni senga taqiqlayman. Chunki tanbeh nafrat uyg'otadi. O'zingni bezab yurgin.

Buning uchun yaxshi vosita surmadir. Yana xushbo'y atirlardan foydalangin. Ularning ichida eng yaxshisi suvdur"³. Uning bu fikrlari bevosita yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashga taalluqlidir. Beruniy tan va ruh pokligi masalasini ham o'rtaga tashlaydi.

Oilada tozalik, poklik va tartiblilik mavjud ekan, u yerda ma'naviy poklik ham bo'ladi. Bu fikrni, tanani toza tutish bilangina cheklab bo'lmaydi, balki ko'p harakat qilishga chaqiradi. Bu harakat mehnat qilish demakdir. Uning qalb va harakat haqidagi fikri insonning tani bilan ruhi pokligini bir butunligi to'g'risidagi g'oya bilan bog'liqdir. Bu narsa bola -tarbiyasi jismoniy sog'lomlik bilan ma'naviy-axloqiy boylik o'rtasidagi o'zaro muvofiqlik haqidagi bugungi kun talabi bilan hamohangdir.

Beruniy ota-onalarga qarata bolaning mo'tadillikda saqlashni tavsiya etadi. Bunga asosan bolani qattiq g'azablanishdan, qo'rqish va xafalikdan, uyqusizlikdan saqlash orqali erishilishini aytib, ularni xohlagan va foydali narsasini topib berishga, sevmagan narsasidan uzoqlashtirishga harakat qilish kerakligini uqtiriladi. Ota-onaning bolaga turli munosabati turlicha xulqlarni keltirib chiqaradi. Mutafakkir bola-xulq atvorining mo'tadilligi natijasida tan va ruh sog'lomligi kelib chiqishini ham ilmiy asoslab beradi. Beruniy bola tarbiyasida irsiyat muhit va tarbiya ta'sirini birdek muhim ekanligini ta'kidlab o'tgan edi. Beruniy axloqiy tarbiyaga musulmon dini talablaridan kelib chiqqan holda yondashadi. Axloqiylik yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi kurash natijasida namoyon bo'ladi va shakllanadi. Uning bu fikri o'z davri uchun yangi va ilmiy bashorat edi. Oila va oilada bola tarbiyasi masalasi Abu Ali ibn Sinoning ilmiy merosida ham muhim o'rin egallaydi. U o'zining qator asarlarida bolaning salomatligi, uning tarbiyasi haqida, eng muhimi bola ruhiyatini o'rganish borasida ko'plab qimmatbaho fikrlarni yozadi. Ularning hammasi bir butun bo'lib, muayyan pedagogik qarashlar tizimini tashkil etadi va u ma'naviy-axloqiy barkamol insonni shakllantirish haqidagi g'oyaga borib taqaladi. Ibn Sino bola tarbiyasida oila boshlig'i otaning roliga alohida e'tibor beradi. Ota-ona kim bo'lishidan qat'iy nazar, bu vazifani mas'uliyat bilan ado etishi lozim. Ibn Sino "Tadbiri al-manozil" asarida er va xotinning yaxshi sifatlarini sanab o'tadi. Ularning shaxsiy namunalari bola uchun o'rnak bo'lib, kelajak taqdirini belgilashda muhim ahamiyatga ega ekanligi alohida uqtiriladi. Ibn Sino oilada

³ Shoumarov B., Haydarov I.O. Oila psixologiyasi. - «Sharq» Toshkent 2008-16-168 betlar44

bolani ma’naviy-axloqiy taibiyalashda mehnatsevarlikning roliga alohida urg’u berib, ota-onalarni farzandlariga nisbatan kasb-hunar o’rgatishga chaqiradi.

Oila o’zining tarixiy taraqqiyoti davrida uzoq va murakkab yo’lni bosib o’tdi. Bu yo’lning o’ziga xos xususiyatlaridan biri jamiyatning o’zaro aloqalari va ijtimoiy vazifalarining tubdan o’zgarganligidir. Jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy tuzilishining o’zgarishi oilaning shakllanishiga, uning o’zaro aloqa shakllariga ta’sir ko’rsatadi. Ayniqsa, jamiyatning moddiy texnika va ma’naviy yo’nalishidagi o’zgarishlari oila faoliyatining o’zgarishiga sabab bo’lmoqda. Bunday o’zgarishlar oila qurish, mehrmuhabbat, o’zaro do’stlik va farzand ko’rishni rejalashtirishda o’z ifodasini topmoqda. Davlatimiz oilalarni o’zining olib boradigan siyosati markazida olib qaraydi. Shu sababli imkoniyat doirasida moddiy va ma’naviy yordam berishga majbur. Oilaviy tarbiyani maktab, jamoatchilik bilan uyg’unligini ta’minlashdan manfaatdordir.

Oilaning eng muhim xususiyatlaridan biri insonlar avlodini ko’paytirishdir. Bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlash borasida oila ma’lum darajada ijtimoiy tashkilotlar bilan jamiyat taraqqiyotiga hamohang holda faoliyatda bo’lmoqda. Oilaviy tarbiya muammolarini tadqiq etish, asosan ikki yo’nalishda olib borilmoqda. Bir tomonda oilaviy tarbiya pedagogikaning an’anaviy qismi sifatida o’rganilmoqda. Ikkinchi tomondan esa oila sotsiologiya va filologiya yo’nalishida ham tadqiq etilmoqda. Matbuotda e’lon qilingan maqolalarda mazkur sohaga qiziqqan olimlarning oilaviy tarbiya xususiyatlariga ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan yondashayotganliklari ma’lum bo’lmoqda. Oilaviy tarbiya ijtimoiy tarbiya bilan uzviy aloqada bo’lsagina o’sib kelayotgan yosh avlod farovonligini ta’minlash mumkin. U yoki bunisining yo’qligi tarbiyaviy jarayonga salbiy ta’sir ko’rsatadi. Respublikamizda ayni hozirgi kunda oilalarning ijtimoiy ahamiyati ortib bormoqda. Oilalarning moddiy ehtiyojlarini to’laroq qondirish asosida bolalar tarbiyasi uchun javobgarlikni kuchaytirish jarayoni tezlashmoqda. Biz uchun oila mustahkamligini ta’minlovchi axloqiy ruhiy aloqalar juda muhimdir. Xuddi ana shu aloqadorlik oilaviy munosabatlar, to’laqonli hissiyemotsional, otalik yoki onalik, oilaviy baxtni ta’minlash ehtiyojlarini qondiradi. Otaonalarga pedagogik bilim berish, oilaviy tarbiya bo’yicha tajriba almashishi, ota va onalarni tarbiya ishlariga qizg’in jalb qilish uchun ularni maktabga, mahalla qo’mitalariga taklif etish maqsadga muvofiqdir. Ota-onalarning bu boradagi eng muhim vazifalari bolalari kamolotini oldindan tasavvur eta olishlari, tarbiya maqsadini aniqlashlaridir.

Xulosa. Bugungi kunga qadar olib borilgan barcha islohotlarning tub negizi inson qadr-qimmatiga bag’ishlanganligi barchamizga ma’lum. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning 2023-yil “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili” deb e’lon qilinishi fikrimizning yana bir dalilidir.

Peagogikaning maqsadi ham har tomonlama barkamol shaxsni tarbiyalashdir. Bu tarbiyaning ilk o’chog’i, albatta, oila deb atalmish qo’rg’on. Bu qo’rg’onning mustahkam

bo‘lishi esa ota-onalarga bog‘liq. Bugungi kunda ajralishlarning soni tobora avj olib bormoqda. Bunga sabab esa erta turmush, bir-birlarini tushunmaslik, sabrsizlik, yaxshi tarbiyalanmaslik va boshqalar. Oilada yosh avlodni ota-ona namunasi oila an‘analari, shajarasi, kasb-kori, axloqiy-ma‘naviy qadriyatlari asosida tarbiyalash, ular ongida oilaga sadoqat, o‘zaro mehr-muhabbat, hurmat hissini shakllantirish vositasida ularni oilaviy hayotga tayyorlash kutilgan natija beradi. Buning uchun ota-onalarni tarbiya jarayoniga tayyorlash maqsadida ota-onalar universitetlari ishini tiklash va takomillashtirish, umumta‘lim maktablari, oliy va o‘rta maxsus ta‘lim mazmuniga “Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash” kurslarini yanada boyitish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsam yurtimizda yashayotgan har bir yosh avlod oila qurib baxtli hayot kechirishga haqlidir. Bunda yoshlarga beriladigan oilaviy hayotga oid bilimlar kerak bo‘ladi. Biz yoshlarni yuksak ma‘naviyatli qilib tarbiyalamasdan turib ularni baxtli oilaning a‘zolari sifatida ko‘rishimiz noo‘rin deb o‘ylayman.

Nafaqat hozir balki, boy bo‘lgan tariximizda ham oilaga, unda tarbiyalanadigan yosh avlodga, kelajak yulduzlariga ham alohida e‘tibor berilganligini ko‘rishimiz mumkin. Oilada bola tarbiyasining milliy o‘ziga xos qoidalari mavjud bo‘lib, ota-onalar ulardan o‘rinli foydalanishlari lozim. Oilada ma‘naviy-ruhiy xotirjamlik, o‘zaro totuvlik hukmron bo‘lsa, oila a‘zolari bir-birlariga g‘amxo‘r bo‘lsalar, bola tarbiyasining tayanch nuqtasini topa olsalar, bunday muhit bola tarbiyasiga ijobiy ta‘sir etadi va ular farzandlariga haqiqiy baxt hadya etadilar, bu bilan ishimizda rivojlanish, jamiyatimizda olg‘a siljish bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrdagi O‘RQ-637-son “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuni
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi PQ-4884- son “Ta‘lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha choratadbirlar to‘g‘risida”gi Qonuni
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi PF-5712- son “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta‘limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 10 oktabrdagi PF-5847- son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni

5. Sh.M Mirziyoyev. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - T.: O‘zbekiston, 2016. - 30 b.
6. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma. – T.: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamgarmasi nashriyoti. 2006, 160 b.
7. Shoumarov B., Haydarov I.O. Oila psixologoyasi. – “Sharq” Toshkent 2008-16168 betlar44
8. Ibragimov X.I., Abdullaeva Sh.A. Pedagogika (darslik). – T., “Fan va texnologiyalar”, 2007. - 288 b.
9. O.Hasanboyeva, D.Xoliqov. Oila pedagogikasi-T.: Oila pedagogikasi. T. : Aloqachi, 2007.- 79-124-189 betlar